

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM
VAZIRLIGI**

**AL-XORAZMIY NOMLI UrDU
PEDAGOGIKA FAKULTETI “BOSHLANG'ICH TA'LIM VA SPORT
TARBIYAVIY ISH” YO'NALISHI
303 - GURUH TALABASI**

Ollamova Dildoraning

**« Savod o'rgatish davri darslarida pedagogik
texnologiyalardan foydalanish »
mavzusidagi**

Qabul qildi:

B.Sapayeva

Topshirdi:

D.Ollamova

Urganch - 2015 - yil.

Mavzu: Savod o`rgatish davri darslarida pedagogik texnologiyalardan foydalanish

Reja:

Kirish.

I bob. Savod o`rgatish darslarining asosiy mazmuni va uni o`rgatishdagi izchillik.

1.1.Savod o`rgatish davrida o`quvchilarni o`qishga o`rgatish

1.2Savod o`rgatish davrida grammatik orfagrafik bilimlarni amaliy o`zlashtirish

II bob. Savod o`rgatish davrida interfaol usullardan foydalanish .

2.1. Savod o`rgatish davrida interfaol metodlarni qo`llash orqali o`quvchilar faolligini oshirish.

2.2.Savod o`rgatish davrida interfaol usullardan foydalanish

Xulosa

Kirish

Mavzuning dolzarbligi. Mamlakatimizda demokratik davlat va fuqarolik jamiyati qurish maqsad qilingan va bu amalga oshirilayotgan ekan, bu jarayonda yoshlarning o`rni va roli alohida ahamiyatga ega .Zero ,yoshlar

bizning kelajagimiz , avlodlardan meros qolgan muqaddas zaminni yuksaltirish ,ilg'or davlatlar darajasiga ko'tarish ularning bilimi, iste'dodi ,jasorati, ma'naviy barkamolligiga bog'liq. Shuning uchun ham Prezidentimiz o'zining barcha asarlari va ma'ruzalarida yoshlar tarbiyasini markaziy o'ringa qo'yish bilan, uni davlat siyosati darajasiga ko'tardi. Bu haqida I.A. Karimov shunday yozadi : „ Biz halqimizning dunyoda hech kimdan kam bo'lmasligi ,farzandlarimizning bizdan ko'ra kuchli, bilimli , dono va albatta, baxtli bo'lib yashashi uchun bor kuch va imkoniyatlarimizni safarbar etayotgan ekanmiz, bu borada ma'naviy tarbiya masalasi, hech shubhasiz , beqiyos ahamiyat kasb etadi .“

Darhaqiqat, mustaqillik davrida yoshlar tarbiyasi uchun ularning qobiliyat va ist'dodlarini ro'yobga chiqarish uchun barcha sharoitlar yaratildi. 1997- yil 29- avgustda qabul qilingan „Ta'lim to'g'risida “gi Qonunda va „Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi “ da yoshlarni jismonan baquvvat , ma'naviy jihatdan yuksak, aqliy jihatdan barkamol, ruhiy jihatdan qobiliyatli , zamonaviy ilm va kasb – hunarni mukammal egallagan , o'zining shaxsiy fikriga ega, vatanparvar , insonparvar va mehnatsevar shaxs qilib tarbiyalash ko'zda tutilgan.

Hozirda ta'lim tarbiya tizimida asl milliy qadriyatlarga tayaninsh tobora qaror topib bormoqda va ko'ngil tarbiyasiga , ya'ni inson ma'naviyatini shakllantirishga birlamchi vazifa sifatida yondashish ustuvor bo'lib bormoqda.

Binobarin , yosh avlodni yoshligidan ma'naviyatli qilib tarbiyalashga e'tibor etib borilsa , u o'zining katta samarasini beradi. Bu haqda Prezidentimizning O'zbekiston milliy axborot agentligi muxbiri savollariga bergan tubandagi javobi e'tiborga loyiq : „ Agar biz o'z kuchi ,salohiyatiga ishonadigan, boqimandalikni or deb biladigan , eng rivojlangan mamlakatlarning ilg'or kishilari bilan teppa- teng muomala qila oladigan , oqni qoradan, yaxshini yomondan ajrata oladigan , bu murakkab , beshafqat hayotning past-u baland , chang-u tor ko'chalaridan Olloh bergan aql –zakovati bilan to'g'ri yo'lni topa olishga qodir bo'lgan barkamol avlodni tarbiyalab yetishtirsak , o'ylaymanki o'z maqsadimizga to'la erishgan bo'lamiz “.

Yurtboshimizning bu fikrlari yosh avlodni boshlang'ich sinflardayoq ma'naviy barkamol inson qilib tarbiyalashni taqozo etadi.

Ma'lumki, boshlang'ich ta'lim insonning bilim va tarbiya olishida poydevor vaifasini o'taydi. Boshlang'ich sinflardagi ona tili ta'limi sohasining asosiy maqsadi bolalarning yosh xususiyatlarini e'tiborga olgan holda , og'zaki va yozma nutqini hamda tafakkurini o'stirish , ularni shaxs sifatida shakllantirishni amalga oshirish, ularda bilim olishga bo'lgan qiziqishni o'stirish , faollik , mustaqillik, mehnatsevarlik , qiyinchiliklarni yenga olish qobiliyatlari o'stirish hisoblanadi. Ayniqsa , „O'qish va nutq o'stirish “ dasturi asosida tashkil qilinadigan boshlang'ich sinf o'qish darslari o'quvchilarni har tomonlama rivojlangan ma'naviyatli inson qilib tarbiyalashda alohida o'rin tutadi. Boshlang'ich sinf „O'qish kitobi” darslarida turli badiiy va ilmiy ommabop asarlardan hamda xalq og'zaki ijodidan namunalar berilgan . Bunday asarlarni o'rgatishda o'qituvchiga eng yaxshi ko'makdosh esa ko'rgazmali qurollar hisoblanadi.

Ma'lumki , savod o'rgatish jarayonidagi o'qish darslarining asosiy vazifasi o'quvchilarga tovush va harfni tanishtirish , ularning to'g'ri talaffuzini o'rgatish orqali bolalarda to'g'ri, ongli, ifodali o'qish ko'nikmalarini shakllantirishdan iboratdir.

Boshlang'ich sinf ona tili o'qitish metodikasiga doir tadqiqotlar orasida savod o'rgatish metodikasiga doir ishlar salmoqli o'rinni egallaydi. Xususan, T.Ashrapova va M.Odilovalarning "Ona tili o'qitish metodikasi", K.Qosimovaning "Boshlang'ich sinf ona tili o'qitish metodikasi", K.Qosimova , S.Matchonov va boshqalarning "Boshlang'ich sinf ona tili o'qitish metodikasi" o'quv qo'llanmalarida, M.Yusupovning "O'qish va yozuv darslarining samaradorligini oshirish" kitobida bu masala o'z aksini topgan. Shuningdek, K.Abdullayeva, K. Nazarov va Sh.Yo'ldoshevaning "Savod o'rgatish darslari", R.Safarova va b. "Savodo'rgatish". T. G'afforova, X.G'ulomova va G. Eshturdiyevalarning "1- sinfda savod o'rgatish" nomli o'quv, uslubiy qo'llanmalarida ham savod o'rgatish davri, uning tuzilishi va qurilishi kabi ko'plab masalalar o'z tadqiqini topgan. Bundan tashqari ommaviy ilmiy-uslubiy nashrlarda ham ko'plab maqollarda bu masalaning u yoki bu jihati o'rganilgan. Shunday bo'lsa-da, hozirgi kun talablaridan kelib chiqib savod o'rgatish davri

darslarining mohiyatini ochib berish, ularning qurilishini o'rganish muhim vazifalardan biri bo'lib qolaveradi. Shu nuqtai nazardan mazkur kurs ish mavzusi dolzarb hisoblanadi.

I bob. Savod o`rgatish darslarining asosiy mazmuni va uni o`rgatishdagi izchillik.

1.1.Savod o`rgatish davrida o`quvchilarni o`qishga o`rgatish

Savod o'rgatish metodikasi, ya'ni elementar o'qish va yozishga o'rgatish. Bolalarga savod o'rgatish pedagogika fanidagina emas, balki ijtimoiy hayotda ham juda jiddiy masalalardan hisoblanadi. Chunki xalqning savodxonligi mustaqillik uchun, siyosiy onglik uchun, madaniyat uchun kurash qurolidir. Mustaqil O'zbekiston Respublikamizda har bir kishining savodxon bo'lishiga alohida e'tibor berilmoqda. Prezidentimiz Islom A. Karimov kelajak avlodning savodxon, yuksak Ma'naviyat egasi bo'lib yetishishlari uchun g'amho'rlik qilmoqdalar. Maktabda o'qitish elementar o'qish va yozishga o'rgatishdan boshlanadi. "Alifbe" ga asoslangan holda qisqa vaqt ichida o'quvchilar o'qish va yozishga o'rgatiladi, ya'ni o'qish va yozish ko'nikmasini egallaydilar.

Savod o'rtgatish davrida o'qish va yozish harakatini maqsadga muvofiq ravishda bajara olish o'qish va yozish ko'nikmasi deyiladi.

Bu ko'nikma bilimni talab qiladi, chunki har qanday ko'nikma bilimsiz shakllanmaydi. Bilim ko'nikmaga aylanmagan bo'lishi mumkin. Masalan bola v harfining elementlarini, yozuv chiziqlari orasiga qanday joylashtirilishini bilib uni daftarda yoza olmasligi yoki o'quvchi harflarni tanib, ularni o'qiy olmasligi mumkin. Yozish ko'nikmasini hosil qilish uchun boshqa faoliyat turlari, ya'ni yozish jarayonida partada to'g'ri o'tirish, ruchkani barmoqlar orasida tutish, daftarni qiyalikda qo'yish kabilar ham o'rgatiladi.

O'qish va yozish ko'nikmasi takomillashtirila borib, malakaga aylantiriladi. Malakaning shakllanishi uchun bir faoliyat bir necha bora takrorlanishi lozim. Yozish malakasiga o'quvchi ruchkani qanday ushlash, qanday yurgizish haqida o'ylab o'tirmay, so'z va gaplarni yoza boshlaydi. Demak o'qish va yozish malakasi harakatning o'ylab o'tirmay amalga oshirilishi jarayonidir. Malaka o'qitishning keyingi bosqichlarida mustahkamlanib avtomatlashish darajasiga yetkaziladi.

O'qish va yozish kishi nutq faoliyatini turi bo'lib, u nutqqa oid malakadir. O'qish malakasini ham nutq faoliyatining boshqa turlari bilan, ya'ni og'zaki hikoya qilish, o'zgarlar nutqini eshitish orqali anglash, ichki

nutq bilan uzviy bog'liq holda shakllanadi. Maktabda o'qitishning muvaffaqiyati savod o'rgatishning qanday tashkil etilganligiga bog'liq.

O'quvchini savod o'rgatish jarayonida elementar o'qish va yozishga o'rgatishda o'quvchilarning faoliyat ko'rsatishi va nutq faoliyatiga kirishishlari uchun talab bo'lishi, o'z fikrini og'zaki yoki yozma ifodalashi uchun zaruriyat va ehtiyojni yuzaga keltiruvchi vaziyat yaratilishi lozim.

O'qish va yozish malakasi biri ikkinchisining muvaffaqiyatli amalgam oshuvini ta'minlaydi. SHuning uchun ham o'qishga o'rgatish bilan yozuvga o'rgatish parallel olib boriladi va bu faoliyat muntazam ravishda mashq qildiriladi. Shunday ekan, savod o'rgatish jarayonida bola juda ko'p o'qishi yozishi zarur. O'qish uchun ham, yozish uchun ham yangi matn olinadi, chunki bir matnni bir necha bor qayta o'qish bilan maqsadga erishish qiyin. Bu ko'pincha o'qilgan matnni yuzaki yodlab olishga to'g'ri keladi.

Takroriy faoliyatda vaziyat va mazmunning almashinishi malakani mustahkamlashga yordam beradi, qobiliyatni o'stiradi. O'quvchi oldida uzoq muddatda amalga oshadigan maqsad o'qish va yozishni o'rganish hamda hozirda bajarish shart bo'lgan kundalik maqsad – topishmoqni o'qish va javobini toppish, so'z va gaplarni o'qish rasm asosida so'zlar berish kabilar turadi. O'zbek tili yozuvi ya'ni fanematik yozuvdir. Har bir yozuv uchun, har bir fonema uchun mahsus grafik shakl olingan.

O'qishda grafik shakllar tovushga aylantirilsa, yozuvda aksincha, tovushlar harflarga aylantiriladi. Bu o'qish va yozish faoliyatida o'quvchi uchun qiyinchilik tug'dirgandek tuyulsa – da, aslida o'qish va yozish jarayonini soddalashtiradi, chunki tizimdagi tovushni ifodalovchi harflar soni uncha ko'p emas. O'qish va yozishni o'zlashtirish uchun tovush va harflarning o'zaro munosabatiga oid qoidalarni o'zlashtirish kifoya.

Savod o'rgatish metodikasida o'zbek tili tovushlar va harflar tizimining o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olish talab etiladi.

O'qish darslari davomida o'quvchilar so'zdagi harflarni bir-biriga bog'lab yozish. So'z va gaplarni kichik hamda bosh harflarni alifbe kitobida berilgan tartibda yozishga o'rgatiladi.

Xat-savod o'rgatish davrida bolalarni bosma harflar bilan yozma harflarning o'xshash tomonlarini farqlab bosma harflarning yozma ravishda ko'chirib yozishga ham o'rgatish foydalidir. Chunki ular ko'pincha bosma harflarni aralashtirib yozib qo'yadilar. Shunday paytda ular e'tiborini yozuv namunalariga jalb qilish, yozuvlarini to'g'ri va chiroyli bo'lishiga erishmoq lozim.

Alifbe davrida bolalarga tovush harfni o'rgatishda dastlab yozilishi talaffuziga mos keladigan so'zlar tanlanadi. Bolalarni yozuvga o'rgatishda so'z tarkibidagi harflarning to'g'ri, aniq yozilishi va qo'shilishiga daftarlarni ozoda tutishga bolalar e'tibori tortiladi. Bu davrdagi darslarni maqsadga muvofiq tashkil etish o'quvchilar bilimining kelgusida pishiq-puxta bo'lishiga mustahkam zamin yaratadi.

O'qituvchining bu sohadagi muvaffaqiyatlari uning dars o'tish usullari, darsda qo'llaydigan didaktik materiallarga ko'p jihatdan bog'liqdir.

Buning uchun o'qituvchi doimo izlanishi, har darsda yangi-yangi usullarni joriy qilishi, o'z bilimini boyitib borishi lozim. Savod o'rgatish ishlarini to'g'ri tashkil qilish uchun quyidagilarga e'tibor berish lozim.

1. Ta'limning didaktik jihatlariga e'tibor berib uni so'nggi yutuqlar bilan to'ldirib borish.
2. O'quvchilarning yosh va fiziologik jihatlariga e'tibor berish.
3. Ularda mustaqil faoliyatni rivojlantirish usullarini keng qo'llash.
4. O'qish va yozishning uzvuyligiga e'tibor berish.
5. alifbo va unga qo'shimcha materiallardan ijobiy foydalanish.

Savod o'rgatishning har bir bosqichi o'zining muhim pedagogik didaktik qirralari bilan ajralib turadi. Masalan alifbogacha bo'lgan davr turli xil rasmlardan, chizmalardan, nuqtalardan, va boshqa vositalardan keng foydalanadi.

Shuningdek bolalar O'qituvchining savollariga javob berishga rasmlarga qarab fikrlashga va o'zlari ko'rgan, eshitgan narsalar voqealar haqida erkin so'zlashga odatlana boradilar.

Savod o'rgatishda ta'lim – tarbiyaning zamonaviy tamoillariga xalq pedagogikasi an'analari milliy qadriyat va ahloqning odob mezonlariga qat'iy rioya qilish o'quvchilarning ruhiy holatlari va o'qish o'rganishga qiziqish darajalarini hisobga olish yozuvga o'rgatishda ularning tovush – harflarni aniq farqlay olishga e'tabor beriladi.

Savod ta'limidagi asosiy maqsad va vazifa bolalarga yozish va o'qishni o'rganishga ishonch hosil qilishdan iborat.

Ma'lumki, savod o'rgatish jaroyonidagi o'qish darslarining asosiy vazifasi o'quvchilarga tovush va harfni tushuntirish, ularning to'g'ri tallaffuzini o'rgatish orqali bolalarda to'g'ri, ongli, ifodali o'qish ko'nikmalarini shakllantirishdan iborat. Shuningdek oquvchilar lug'atini boyitish tafakkurini shakllantirish, eshitish, qabul qilish sezgisini o'stirishda ham bu davr mas'uliyatligi bilan muhim o'rin tutadi.

Tayyorgarlik davri o'qishga o'rgatish uchun zamin hozirlaydi. Bu davrda bolalarda ozgalar nutqini eshitish diqqatni to'plash, til birliklarini (tovush bo'g'in so'z, gap) farqlash, ajratish, ularning vazifalarini anglash kabi vazifalarini anglash kabi xususiyatlar shakllantiradi. Bular o'quvchilarning o'qishini muvaffaqiyatli egallashlariga yordam beradi.

O'qishga o'rgatish uchun, avvalo, o'quvchi tovush va harf bilan tanishtirilishi lozim. Tovush va harf bilan tanishtirishda bo'g'indan tovushni ajratish tamoyiliga amal qilinadi. Harf bilan tanishtirish quyidagi yo'nalishlarda amalga oshirilishi mumkin:

1. Mazmunli rasm yuzasidan savol-javob usuli bilan bog'lanishli hikoya tuzdiriladi. Undan kerakli gap, so'ng so'z ustida yuqoridagi kabi tahlil ishlari uyushtiriladi.
2. So'z asos qilinib, analitik mashqlar yordamida o'rganiladigan tovush ajratib olinadi. Masalan: oy. O'qituvchi oy rasmini ko'rsatadi, o'quvchilar uning nomini ayadi. O'quvchi o' tovushini cho'zib (o-o-o-y) aytadi va qaysi tovushni

cho'zib aytayotganini o'quvchilardan so'raydi. Oquvchilar o'z tovushini aytgach, uning xususiyatlari haqida savol-javob o'tkaziladi.

3. O'rganilgan harflar ichiga bugun o'rganiladigan harf arashlashtirib qo'yiladi, bolalar uning ichidan notanish harfni ajratadilar, so'ng o'qituvchi bu harf ifodlaydigan tovushni aytadi. O'quvchilar tovushning xususiyatlarini aytadilar. Shu harfni kesma harflar ichidan topib, kitob sahifasidan , rasimli alifbodan ko'rsatadilar . shu tariqa tovush-harf bilan tanishtirilgach, o'qishga o'rgatish ustida ishlanadi.

O'qishga o'rgatishda bo'g'in asos qilinib olinadi. Buning uchun o'qituvchida bo'g'in jadvali bo'lishi kerak. Bo'g'in jadvali asosida o'qish namunasi ko'rsatiladi, ya'ni harflab emas ichida, birinchi harfni ko'z bilan ko'rib uning nomini dilda saqlab, ikkinchi harfni ko'rish va ikkalasini bog'lab unlini mo'ljallab ulab aytish tushuntiriladi. Bo'gin o'qish oqituvchining namunasi asosida doimiy izchil olib boriladi. Bunda quyidagi kabi chizmalardan foydalanish mumkin:

ti:l

no:n

la:b

o

na cho:y

a

bol

ta

xal

bunda “Alifbe” sahifalaridagi soʻzlarni oldin boʻginlarga boʻlish, soʻng oʻqishni mashqqilish yaxshi samara beradi. Oʻqituvchining namunali oʻqishidan soʻng birlikda ovoz chiqarib oʻqish, yakka-yakka oqish, shivirlab oʻqishdan foydalaniladi. Ayniqsa, sekin oʻqiydigan oʻquvchilar bolgan sinflarda xor bilan oʻqitish oʻqishni tezlshtiriladi. Sinf oʻquvchilarining oʻqish koʻnikmalaridan kelib chiqib matndagi soʻzlarni xttaxtda boʻgʻinlarga boʻlib yoish oʻrganilgan harflarni hisobga olgan holda qoʻshimcha soʻz birikmalari, gaplar tuzib yozish va oʻqitish usulidan ham foydalaniladi.

Maʼlumki “Alifbe” sahifalarida bogin tuzilishi murakkablashib boradi. Shuning uchun oʻqituvchi har bir boʻgin tuzilishining murakkabligiga qarab ish usullarini belgilab olishi zarur . Masalan uch tovushdan tuzilgan ,toʻrt tovushdan tuzilgan boiʻgʻinlarni oʻqishga oʻrgatish ham oziga xos qiyinchiliklarni keltirib chiqaradi. bunda o-lov, Man-non tipidagi boʻgʻinlarda o-lov, Maʼn-no:n tarzidagi qoʻshimcha chiziqlardan , bodring doʻsttipidagi boʻginlarda bo:d-ri:ng, toʻrt tarzidagi qoʻshimcha chiziqlardan foydalniladi. Soʻzlarni oʻqishga oʻrgatishda boʻlib oʻqitishdan tashqari jadvallar ham yaxshi samara beradi:

Ki		
	la	
		lar

Umuman olganda , har bir oʻqish darsida, albatta boʻgʻin tuzilishi murakkab boʻlgan soʻzlarni oʻqish mashqi oʻtkazilishi lozim. Bu usul oʻqituvchilarda oʻqish malakasining takomillashuviga yordam beradi.

Har bir piredmetda boʻlgani kabi oʻqish darslarida ham talim tarbiya birligiga eʼtibor beriladi. Oʻqish darslarida tarbiya oʻqilgan matinning ongli oʻzlashtirilishiga bogʻliq. Birinchidan, oʻquvchi matnda fikr nima haqda borayotganini anglasagina, oʻzida shunday sifatlarni shakllantirishga harakat qiladi. Ikkinchidan , yaxshi inson boʻlish uchun oʻqishning zarurligini anglaydi. Ongli oʻqishni taminlashda matn bilan unga ishlangan mazmunlui rasmlar oʻrtasidagi bogʻlanishlarni aniqlashtirishga, matn yuzasidan savollar berishga

diqqatini qaratish lozim. bunda quyidagicha savol va topshiriqlardan foydalanish mumkin:

1. Rasmni kuzating matnda nima haqida gap boradi?
2. Rasmda nima tasvirlangan ?
3. Rasm bilan matn norasida bo'g'lanish bormi?
4. Matn mazmunini rasmga qarab so'zlab bering.

Demak o'qish o'qilganlarni o'zlashtirishga yo'naltirilgan bo'lishi lozim , shundagina matndagi asosiy fikr , ilgri surilayotgan g'oya o'quvchilar tomonidan o'zlashtiriladi .

Savod o'rgatishning birinchi kunidayoq o'qish ongli bo'lishi, bolalarni ongli o'qishga o'rgatish juda muhim. So'roqlar yordamida o'qilganlarni bola qanday tushingani aniqlanadi, tekshiriladi. Sharoitga qarab muammoli holatni yaratish zarur. Bunday holat “Alifbe” dan yoki harf terish matosidan, o'qiladigan topishmoqdan yoki muammoli savolni keltirib chiqardigan taxminiy suhbat yordamida hosil qilish mumkin. Masalan : Qishda qushlar qyerga uchib ketadi?

Ongli o'qishni ifodali o'qishdan ajrtib bo'lmaydi. Ammo analitik o'qishning birinchi bosqichida ifodali o'qish mumkin emas , chunki bolalar so'zda urg'uli bo'g'inni ajrata olmaydilar, tugallangan intonatsiyani , so'roq ohgangini hatto, orfoepik to'g'ri o'qishni hm bilmaydilar . shuning uchun analitik o'qish bosqichida so'zni yaxlit, orfoepik qayta o'qish tavsiya qilinadi. Bunday qayta o'qish to'g'ri intonatsiyaga, ifodalilikka o'rgatadi, o'qishning ongli bo'lishiga yordam beradi.

O'qishning ongliligini va tasirchanligini taminlash uchun matn mazmunini o'quvchilarning ko'rgan –kechirganlari taassurotlari bilan bog'lash lozim. Shunda o'quvchida o'qishga , o'rganishga qiziqish ortadi.

Ongli o'zlashtirishni amalga oshirishda lug'at ustida ishlash ham muhimdir. So'zlarning ma'nosi ustida to'xtalish fikrni oydinlashtiradi, mtinni tushinishga yordam beradi.

She'r, tez aytish , topishmoq qo'shiq maqol hikmatli so'zlardan o'qitish yod oldirish ham o'quvchilarning o'qishga qiziqishini oshiradi, o'qish malakasini

shakillantiradi, xotirasini mustahkamlaydi. Boshlng'ich sinflarda o'qish darslarinin g uchdan ikki qismi o'qishni mashq qilishga ajratilishi lozim.

Yangi material o'tganiladigan o'qish darsida asosiy ish turlari quyidagilardir:

1. O'rganiladigan yangi tovushli so'zni bo'g'in tovush tomonidan tahlil qilish bilan ajratish . Bunda yangi tovush ajratiladigan so'zni o'quvchilar rasm asosida o'zlr tuzgan gaplar ichidan oladilar . tokvushni ajratishda shu sdo'zning mo'deliga asoslanadilar. Tovushlarni eshitish , talaffuz qilish ularning artikuliatsiyasi (nutq organlarining tovush chiqarishdagi ishi) ustida mashq qilinadi.
2. Kichik va bosh harflar bilan tanishtiriuladi. Bo'g'inlar o'qitiladi.
3. So'zlarni avval xattaxtdan keyin "alifbedan " o'qish . harf bo'g'inlaridan harf terish kartonida so'z , so'z birikmasi gap tuzish va ularni o'qish so'z m'nosida ustiuda ishlash.
4. Mtanni o'qish va tahlil qilish , uni qayta o'qish , rasmning matnga bog'liqligini belgilash.
5. Nutq o'stirish: lug'atni boyitish , so'z birikmasi gap, bog'lanishli hikoya tuzish
6. Umumlashtirish : yangi harfni jadvalga qo'yiush , yangi o'rgfanilgan tovushning unli yoki undosh ekanligini aniqlash, yangi harfni ilgari o'rganilganlar o'rganilgan lar bilan qityoslash , tovush va harfning ahamiyatini takrorlash.
7. O'rganilganlrni mustahkamlsh darsida yangi trovush ajratiladi , yangi harf biln tanishtirish mashqidan tashqari , barcha ish turlaridan foydalaniladi , shuningdek, qo'shimcha so'zlar va matnlar bilan ishlanadi; matinni o'qish va tahlil qilishga , ko'rgazma vositalar bilan ishlanadi; matnni o'q ish va tahlil qilishga, ko'rgazma vositalar bilan ishlashga, nutq o'stirishga , o'yinlr qiziqarli materiallarga , ilgari o'rganilgan tovushlar va harflrni takrorlab mustahkamlashga alohida ahamityat beriladi, tarqatma materiallardan ham foydalaniladi.

8. Birinchi uchragan so'zlar bilan ishlash : ochiq bo'g'inda dastrlab undosh , keyin esa unlui o'qiladi , yopiq bo'g'inda esa unli bilan tugagan ochiq bo'g'inni o'qib, keyingi undosh o'qiladi va so'zni yaxlit o'qishga o'rgatiladi . o'quvchilarga asta-sekin bo'g'inlab o'qishdan sintetik o'qishga tayyorlab boriladi. Bunda yangi so'zni xattaxtaga ktta bosma harflar bilan yozish, o'quvchilarga o'qitish tavsiya qilinadi. So'z shivirlash bilan o'qiladi, kesma harf, bo'g'in bilan yoziladi.
9. sujetli (rasmning asosiy mzmunini aks ettiradign) rasmga qarab o'qituvchi yordamida ,uning yo'llovchi savollari asosida hikoya tuzish, undan gapni ajratish va tahlil qilish.

1.2 Savod o'rgatish davrida grammatik - orfografik bilimlarni amaliy o'zlashtirish

Savod o'rgatish davridayoq bolalar grammatika va imlodan ayrim materiallarni amaliy o'zlashtira boradilar, ya'ni ularga mavzu tushintirilmaydi. bolalar og'zaki va yozma nutqni o'zlashtirish va yozma mashqlarni bajarish bilan o'quv yilining ikkinchi yarmida yoki keyingi sinflarda o'rganiladigan mavzularni o'zlashtirishga tayyorlanadilar.

Savod o'rgatishning birinchi oylaridayoq bolalar Omon, Tolib, Lola, Naima

kabi juda ko'p ismlarni o'qiydilar va kishilarning ismlari o'qiydilar va kishilarning ismlari bosh harf bilan yozilishini amaliy o'zlashtira boradilar. Bu bilan ular keyinroq o'rganiladigan kishilarning ismi bosh harflar bilan yozilishiga doir imlo qoidasini o'zlashtirishga tayyorlanadilar.

Til-dil, olti-oldi kabi so'zlarni o'qishni mashq qilish jarangli va jarangsiz undoshlarni o'zlashtirishga, son-sana, gul-gulchi-guldon-gulzor, bog'-bog'bon, kabi so'zlarni o'qishni mashq qilish esa bolalarni "O'zakdosh so'zlar" mavzusini o'zlashtirishga tayyorlaydi.

Propedevtik mashqlar tizimi boshang'ich sinflar grammatika va imlo dasturining bosqichli izchillik tamoyili asosida tuzilishiga mos keladi. Amaliy ishlar natijasida bolalarda ma'lum nutq tajribasi, til qoidalarini, uning tarkibi va yasallishini, boshqa so'zlar bilan bog'langanda o'zgarishini kuzatish tajribasi to'plana boradi. Mana shu tajribalar asosida o'quvchilar nazariy umumlashmalarni o'zlashtiradilar, bular asosida esa grammatik tushincha va arfografik qoidalar shakllanadi. Gap ustida ishlash. Fikr almashish, aloqa - aralashuv gap vositasida amalga oshiriladi, shuning uchun ham gapni o'qishga, gap tuzishga, gap mazmunini aniqlashga, gapni to'g'ri yozishga oid amaliy bilimlar savod o'rgatish davridan boshlab shakllantiriladi.

O'quvchilarda nutq, uning og'zaki va yozma shaklda bo'lishi, nutqning gaplardan hosil bo'lishi va gap haqida amaliy tushincha darslikdagi mazmunli rasmlar asosida hosil qilinadi. Buning uchun o'qituvchi rasm yuzasidan 3-4 so'zli savollar tuzib keladi.

Masalan:

1. Rasmda nima tasvirlangan?
2. Aziz dalada nima qiladi?
3. Kimlar bog'da olma teryapti?

O'quvchilar javobi gap nusxasi xattaxtda quyidagicha tasvirlab beriladi.

O'quvchilar javobidan nima hosil bo'lgani aniqlanadi. So'ng o'qituvchi xattaxtda hikoyaning nusxasi chizilganini aytadi. o'quvchilar nusxalarni kuzatadilar.

O'qituvchi birinchi nusxa 1-berigan savolning - gapning javob gapi ekanini aytadi. So'ngra o'quvchilarga nechta savol berilganini aniqlash topshirig'i beriladi. Ularga "Chiziqning boshi nima uchun burchakli? Oxiriga nima qo'yilgan?" kabi savollar bilan murojat qilinadi. Ular "3 ta savol-3 ta gap berilgan edi, shuning uchun 3ta javob -3ta gapning nusxasi chizilgan" deyishadi. O'quvchilarning javobi hisobga olgan holda gapning boshlanishi burchakli chiziq bilan ko'rsatilishi, oxiriga gapning tugaganligini bildiruvchi tinish belgisi nuqta qo'yilgani tushintiriladi. o'quvchilarning javobini tartiblashtirib va to'ldiri, quyidagicha xulosa chiqariladi. Demak nutqning gaplardan tuzilar ekan. Nutqda 2,3,4 ta va undan ham ko'p gap bo'ladi. gapning boshlanishi burchakli chiziq bilan belgilanadi, gapning tugagan joyiga nuqta qo'yiladi.

Navbatdagi darslarda gapning boshqa xulo'layotgan mavzu va rasmlarga bog'liq holda o'rgatib boriladi.

Umuman, xat-savod o'rgatish jarayonida o'qish va yozuv darslarida gap, gapning so'zlardan tuzilishi, gapda so'zlarning alohida alohida yozilishi gapning oxiriga mazmuniga qarab nuqta, so'roq, undov belgisi qo'yilishi, gapning birinchi so'zi bosh harf bilan yozilishi haqida amaliy tushincha beriladi.

Gap yuzasida quyidagicha mashq turlarida foydalanish mumkin:

1. O'qituvchi va o'quvchilardan biri aytgan gapni o'quvchilarning xattaxtda chizma shaklida tasvirlashi va tushintirishi.

2. o'qituvchi tavsiya qilgan gap chizmasini o'quvchilarning izohlashga va unga mos gap tuzishi. Bunda o'qituvchi tuzadigan gap alifbe va yozuv daftarlaridagirasmlar asosida bo'ladi.

3. Berigan mazmunli rasm asosida tuzilgan hikoyadan o'rganilayotgan tovush-harf qatnashgan so'z bor gap ajratib olinib, uning chizmasi xattaxtda chizdiriladi. Shundan so'ng o'sha so'z bo'g'in -tovush jihatdan tahlil qilinadi.

4. Rasm asosida uzilgan hikoyadan istalgan gapning chizmasini xattaxtda ifodalash. Bunda o'quvchilarning gapni bir butin holda xotirasida saqlagani,

gapga xos xususiyatlarni ongli o'zlashtirgani aniqlanadi. Bu jarayonda bir necha o'quvchiga bir necha gap chizmasi chizdirilishi mumkin.

5. Hikoyadan berilgan chizmaga mos gapni ajratib olish va izohlab berish.

6. Hikoyadagi har bir gapning nusxasini chizdirish. Hikoya dastlab 2-3, so'ng 4-5 gapli bo'lishi zarur. Tuzilgan hikoyani o'qituvchi qayta aytib turadi, o'quvchilar bittadan uni xattaxtada ifodalaydi. Hikoyaning nusxasi shu tariqa xattaxtada o'z isodasini topadi.

Misol:

Mana katta dala,

Bolalar bodring terdilar.

Dehqon ularga rahmat aytdi,

7. Kartochkalar bilan. bunda bir necha o'quvchilarga quyidagicha shakllar chizilgan kartochkalar tarqatiladi.

1.

2.

3.

So'ngra ularga har bir kartochkani o'z o'rniga qo'yib, gab tuzish va tushintirib berish topshirig'i beriladi. Bunday topshiriqlar o'tirgan o'quvchilarga kartochkalarda bajarilishi mumkin. Hech bo'lmaganda o'quvchilarning to'g'ri bajarilgan-bajarilmaganini so'rash lozim. Gapni so'zlar qo'shib kengaytirish va uni chizmada ifodalash. Bunda o'qituvchi gapdagi narsalarning belgilarini topishga undovchi savollar beri b turiladi. (Qanday? olmalar, qachon? terdi, qayerdan? terdi va shu kabi). Bunday ishlarni o'quvchining bilish faolligini oshiradi, darsga qiziqish uyg'otadi. Bu jarayonda o'quvchilar gapning yozilishi bilan bog'liq imloviy bilimlarni egallab boradilar, ularning gapni to'g'ri tuzish malakalari rivojlanadi, hikoyada (matnda)gaplar bir-biri bilan mazmunan bog'liq bo'lishini anglashga tayyorlab boradi.

Yuqoridagi mashqlar savod o'rgatish darslari davomida izchil uyushtirib boriladi. Bu xil mashqlar o'quvchilar tomonidan yo'l qo'yiladigan tipik xatolarni xatolarning (gap chegarasining farqlamaslik) oldini olish imkonini yaratadi.

O'quvchilar gapning ohangiga, to'ztamlariga e'tibor berib, uni chegaralab olishga o'rganadilar.

So'z ustida ishlash. Bu yo'nalishda quyidagicha ishlar amalga oshiriladi.

1. So'zning to'g'ri, adabiy-arfoepik talaffuzi va o'qilishini o'rgatish.
2. So'z ma'nolarini tushintirish.
3. O'quvchilar nutqiga yangi so'zlarni kiritib borish, ya'ni lug'atini boyitish.
4. So'zlarni adabiy jihatdan to'g'ri qo'llashga o'rgatish.
5. Berilgan so'zni imlo jihatdan to'g'ri yozishga o'rgatish.

Bu jarayonda mazmunli rasm asosida yoki predmetlarning o'zi yordamida har bir aytilayotgan nom so'z ekanligi tushintiriladi, "so'z" tushinchasi shakllantiriladi. Bu o'rinda gapning so'zlardan tuzilishi aytib o'tiladi. "Bo'g'in" mavzusi o'tilganda sozlarning bo'g'ilarga bo'linishini bilib oladilar.

So'z ustida ishlash jarayonida quyidagicha og'zaki mashq turlaridan foydalanish mumkin.

1. Bir xil qo'shimchali so'zlardan topish.

Masalan: ishla, tuzla, sozla, gulzor, mevazor paxtazor, va boshqalar.

2. Ohangdor so'zlar topish.

Misol: bosh, tosh, osh, tutun, butun, kukun, va boshqalar.

3. Ma'nodosh so'zlar topish. Bunda darslikdagi matndan ma'nodoshi bor so'zlar tanlab olinadi va "Bu so'zni boshqa qaysi so'z bilan almashtirish mumkin?" deb so'raladi.

Masalan: vatan, yurt, el, mamlakat, diyor va boshqalar.

4. Shakldosh so'zlar topish. Bunda 2 ta gap berilib ulardagi bir xil yozilgan so'zni topish aytiladi. Soz topilgach, uning ma'nolari gaplar vositasida tushintirilib beriladi.

Misol: Yozda dam oldik.

Xatni qalam bilan yoz!

O'quvchilarga mana shunga o'xshash misollar topish vazifasi beriladi.

5. Qarama - qarshi ma'noli so'zlar topish.

Misol: yaxshi-yomon, baland-past, oq-qora, odobli-odobsiz, katta-kichik va boshqa.

6. Ko'p ma'noli so'zlar yordamida birikmalar tuzish. Odamning ko'zi - uzukning ko'zi, taxtaning ko'zi..... Bunda o'qituvchi boshlab beradi va qator o'quvchilar tomonidan davom ettiriladi.

7. Berilgan so'zni qatnashtirib so'z tuzish. Bunda berilgan so'zni qatnashtirib gap yoki maqol aytish topshirig'i berilishi mumkin.

Misol: Kitob: Kitob - bilim manbai. Vatan: Men vatanimni sevaman.

So'z ustida ishlash jarayonida kesma harf va kesma bo'g'ilar yordamida yozma mashqlar tashkil etiladi.

1. O'rganilayotgan sahifadagi bir bo'g'inli so'zlarni kesma harflardan tuzish va o'qish: nok, nay, osh, oy, ip, tom, do'st, qand, baxt va boshqa.

2. Ustunchadagi ikki va uch bo'g'inli so'zlarni kesma harf va kesma bo'g'inlardan tuzish va o'qish.

Misol: t-to-mon, o-ta, mit-ti. Bir soz asosida bir necha so'z tuzish va o'qish:

4. Berilgan so'zning bo'g'inlarini yoki ayrim harflarini almashtirib, yangi so'z tuzish va o'qish.

Misol: osmon-somon, Zilola-Hilola, qovoq-tovoq va boshqa.

5. So'z bo'g'inlaridan yoki harflardan birini olib tashlab, yangi so'z hosil qilish va uni o'qish.


Misol: Noila-nola (yoki oila), guldun-don (yoki gul), ziyrak-zirak va boshqa.

6. Berilgan so'zga -chi, -la, -zor qoshimchalarini qo'shish hosil bo'lgan yangi so'zning ma'nosini izohlash.

Misol: ish-ishchi, ishla, gul-gulchi, gulzor, va boshqa.

7. So'zga harf, bo'g'in yoki tutuq belgisi qo'shib, yangi so'z hosil qilish va uni o'qish: O't-o'tloq, bog'-bog'bon, bil-bilim, sher-she'r va boshqa.

8. Berilgan chizma asosida so'zlar tuzish va ularni o'qib, ma'nosini izohlash,



Misol:

Bu chizma asosida qush-qushcha, do'p-pi, ruch-ka, kabi so'zlar tuziladi.

O'yin tarzida olib boriladigan bu kabi ish turlari o'quvchilarning lug'atini boyitish bilan birga, o'qishga qiziqish uyg'otadi, imloviy sezgirlikni oshiradi va so'zning tovush tarkibi haqidagi tasavvurlarini kengaytiradi.

II bob. Savod o'rgatish davrida interfaol usullardan foydalanish .

2.1. Savod o'rgatish davrida interfaol metodlarni qo'llash orqali o'quvchilar faolligini oshirish.

Keyingi paytlarda ta'lim-tarbiya nazariyasi va amaliyotida jiddiy o'zgarishlar ro'y berdi. Natijada avvallari an'ana bo'lgan ta'lim jarayonida qo'llanadigan metodlar o'rniga yangi zamonaviy pedagogik texnologiyalarga asoslangan interfaol metodlar kirib kela boshladi. Mavzularning o'quvchilar tomonidan o'zlashtirilishi va ularning mustaqil fikr yuritishlariga undash bevosita o'qituvchi faoliyatiga bog'liqdir. Zero, yangi ta'lim standartlarini o'zlashtirish kafolati yangicha zamonaviy metodlarni qo'llashni talab etadi.

Ta'lim tizimidagi islohot munosabati bilan boshlang'ich ta'lim oldiga qo'yilgan talablar o'qish darslarida pedagogik texnologiyalarning rivojlantiruvchi, differensiatsiya, shaxsni muayyan maqsadga yo'naltirish, izlanish, muammoli o'qitish, mustaqil ish usullaridan foydalanishni taqozo etmoqda. Shuni hisobga olgan holda boshlang'ich sinf o'qish darslarini samarali tashkil etishga yordam beradigan, o'quvchining faolligini oshiradigan mustaqil ish, yarim izlanishli muammoli o'qitish, musobaqa–bellashuv metodlaridan, turli interfaol metodlardan foydalaniladi. Darslarni aqliy hujum, mustaqil tahlil, ta'limiy o'yin, turli sahna ko'rinishli andazasiz usullardan foydalanib uyushtirishga alohida e'tibor qaratiladi.

Savod o'rgatish davrida ham o'quvchilarning mavzuni chuqur o'zlashtirishlarini, uni tahlil qila olishlarini ta'minlash kerakligini hisobga olgan holda metod tanlashga e'tibor qaratiladi. Bunda interfaol metodlarni qo'llash maqsadga muvofiqdir. Chunki zamonaviy ta'limni tashkil etishga qo'yiladigan muhim talablardan biri ortiqcha ruhiy va jismoniy kuch sarf etmay, qisqa vaqt ichida yuksak natijalarga erishishdir. Qisqa vaqt orasida muayyan nazariy bilimlarni yetkazib berish, ularda ma'lum faoliyat yuzasidan ko'nikma va malakalarini hosil qilish, shuningdek, o'quvchilar faoliyatini nazorat qilish, ular tomonidan egallangan bilim, ko'nikma hamda malakalar

darajasini baholash o'quvchidan yuksak pedagogik mahorat hamda ta'lim jarayoniga nisbatan yangicha yondashuvni talab etadi.

Bugungi kunda bir qator rivojlangan mamlakatlarda bu borada katta tajriba to'plangan bo'lib, ushbu tajriba asoslarini tashkil etuvchi metodlar interfaol metodlar nomi bilan yuritilmoqda. «Interfaol» atamasi inglizcha “interact”-o'zaro tasirlashishi (yoki “interaction”-o'zaro ta'sir) so'zidan olingan bo'lib, biror faoliyat yoki ma'lumot o'zaro muomalada, o'zaro bahs-munozara, debat usulida, fikrlashni asnosida, hamjihatlik bilan hal qilish ma'nosini anglatadi. Bugungi kunda ta'lim amaliyotida interfaol metodlarning «Aqliy hujum», «Klaster», «6x6», «Guruhlarda ishlash» «Qarorlar shajarasi», “Qadamba-qadam”, “Venn diagrammasi” kabi ko'rinishlaridan foydalanishmoqda. Shuningdek, o'qish darslarining andozasiz noan'anaviy ko'rinishlari ham ta'lim jarayonida qo'llanilmoqda.

Ta'lim jarayonida o'quvchilarning bilimga qiziqishlari ham muhim ahamiyatga ega. Psixologik adabiyotlardan qiziqishning ikki turi bizga ma'lum.

Qiziqishning birinchi ko'rinishi myayyan paytda, muayyan faoliyat jarayonida qo'zg'aladigan qiziqish bo'lsa, ikkinchisi, maqsad qiziqishi bo'lib, tashqi ta'sir natijasida o'quvchi oldiga muayyan maqsadini qo'yib, uni shunga qiziqtirishdir. Har bir o'qituvchi o'z faniga nisbatan barqaror, bilvosita qiziqishni tarkib toptirishga erishishlari lozim. “Ona tili” faniga qiziqtirish dars mashg'ulotlarini qiziqarli tashkil etish, topshiriqlarning rang-barangligiga erishish, ko'rgazmali, aydiovizual va texnik vositalardan unumli foydalanish, dars mashg'ulotlarining amaliy yo'nalishini kuchaytirish, o'quvchini ta'lim jarayonining sub'ektiga aylantiradi.

“Doirada berilgan harflar asosida so'z tuz” o'yini. Oquvchilarda doira ichida 8 ta harf taqdim etiladi. O'quvchilar shu harflar ishtirokida so'zlar hosil qiladilar. Belgilangan vaqtda ko'p so'z hosil qilgan o'quvchilar yoki guruh g'olib sanaladi. Bu o'yinni, ayniqsa, unli va undosh tovushlarni o'rgangandan keyin o'tkazish maqsadiga muvofiq bo'ladi. Agar o'quvchilar e'tiboriga a, u, b, z, f, s, t harflari berilgan bo'lsa ,

ular bu harflarni qatnashtirib, bu, sab, tuz, bo`ta, aft, saf, bas kabi so`zlar hosil qiladilar.

“Keyingi bo`g`inni top” o`yini.

Berilgan bo`g`inlar ishtirokida so`z tuzish tushuntiriladi. Qaysi o`quvchi ko`p so`z tuza olsa, “besh” baho bilan mukofatlanadi. Masalan, bo, bo`, jo`, ni, lo, sa, mu, no, hu, ko...

Bola, bobo, bozor, bodom, ...

Bo`gin, bori, bo`liq, bo`zchi ...

Jo`ja, jo`ra, jo`xori, jo`na ...

Nima, nizom, nido, nihol, ...

Lola, lochin, lobar, lozim ...

Savob, sarob, sadaqa, salom ...

“Talaffuzda adashmang” o`yini

O`qituvchi o`quvchilarga x va h yoki f-p tovushlari ishtirok etuvchi so`zlardan aytishni topshiradi. O`quvchilar ikki guruhga bo`linib, topshiriqni bajarishlari mumkin. Shunda kim so`zni noto`g`ri aytsa, o`yindan chiqadi. Mavzu asosida so`zni aytgan o`quvchi shu so`zni taxtada yozadi va imlosi bilan taqqoslanadi. Belgilangan vaqtda eng ko`p to`g`ri so`z aytgan o`quvchiga, sinfda o`quvchilar o`z qo`llari bilan yasagan o`yinchoqlardan sovg`a sifatida beriladi.

Namuna:

Shoh – davlat boshlig`i

Shox – novda, daraxtning shoxi

Xil-xil - saralangan – tanlangan

Hil-hil - ezilib pishgan

Uhladi-xafa bo`ldi, “uh” tortdi.

Uxladi – uxlamoq - dam olmoq

Hol-ahvol – (hol)ni so`radi.

Xol – odam tanasida bo`ladigan xol.

“Sirli kataklarni to’ldir” o’yini. O’quvchilarga kataklarni to’ldirib, tovushdosh soʻzlar hosil qilish vazifa qilib topshiriladi. Masalan, toy soʻzini soy soʻzigacha davom ettirish talab etiladi.

Namuna: toy, loy, moy, voy, oy, choy, yoy, soy

Tavsiya etilgan soʻzlar.

bosh, tosh, osh, qosh, yosh, rosh

bol, pol, tol, sol, gol, mol, xol, hol

Savod oʻrgatish darslarini turli noʻanaviy shakllarda tashkil etish pedagogik texnologiyaning eng muhim talabi sanaladi. Ana shu noanʻaviy dars shakllaridan biri “Oʻrganilgan yoki oʻrganilayotgan bilimlar olamida sayohat” darslaridir. Oʻquvchilar sinfda oʻtirib, bilimlar olamida sayohat qiladilar. Oʻqituvchi dars jarayonida beriladigan oʻquv topshiriqlarini toʻrt-besh “bekat”ga ajratadi. Muayyan bir “bekat”dagi oʻquv qiyinchiligini enggan oʻquvchi, oʻqituvchi rahbarligida ikkinchi “bekat”ga yoʻl oladi. Barcha oʻquv qiyinchiliklarini yenggan oʻquvchilar bilimlar mamlakatini zabt etadilar.

2.2.Savod o`rgatish davrida interfaol usullardan foydalanish

Savodga o'rgatish darslari tayyorgarlik va asosiy davrni o'z ichiga qamrab olib, mazkur bosqichda o'quvchilar bilan olib boriladigan ta'limiy-tarbiyaviy ishlar turli-tumandir. Xususan, bu davrda:

- matn, og'zaki va yozma matn haqida, gap, matnning gaplardan tuzilishi, so'z, gaplarning so'zlardan tashkil topishi, ya'ni matn tuzish va uni bo'laklarga bo'lib matn tarkibini tashkil qiluvchi qismlarni idrok etishga o'rgatish, bo'g'in, tovush, harf haqida ma'lumot berish, unli tovushlar va undosh tovushlar haqida ma'lumot berish, tovushlarning unli va undosh tovushlarga ajralishini o'rgatish, alifbedagi rasmlar, o'qituvchi yoki o'quvchilar tomonidan tayyorlangan suratlar asosida matn tuzdirish, o'quvchilar bilgan she'r, hikoya, ertak, maqol, tez aytish va boshqalarni yoddan aytirish, ularga yangi she'r, hikoya, ertak, maqol, topishmoq kabilarni o'rgatib borish, alifbe darsligidagi so'zlar, uning ma'nolari ustida ishlash, tanish so'zlar asosida o'quvchilarni gap tuzishga o'rgatish, harf va tovush orasidagi mutanosiblik va farqni tushuntirish ishlari olib boriladi.

Mazkur Alifbe darsligiga kiritilgan jumboqli topshiriqlar ko'lamini birmuncha keng bo'lib, u o'quvchilarni mustaqil fikrlashga o'rgatadi. Zero Prezidentimiz I.Karimov O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi IX sessiyasida so'zlagan nutqida: «Bolalarimizni qachondan boshlab, qanday qilib, qanday usulda va uslubda milliy qadriyatimiz, urf-odatlarimiz bilan tanishtirish kerak»ligini o'ylab ko'rishimiz lozimligini, ularda mustaqil fikrlashga rag'bat uyg'otish uchun pedagogik jihatdan ta'sirchan vositalarni izlab topish, o'quv sharoitiga tatbiq etish zarurligini uqtirgan edilar.

Darslikda 20 dan ortiq jumboqli topshiriq va krossvordlar berilgan. Jumboqli topshiriqlarni yechishda o'qituvchi o'quvchilar jamoasining imkoniyatlarini hisobga olishi, ba'zi topshiriqlarni yechishga bolalarni oldindan tayyorlashi, ya'ni jumboqli topshiriqni kattalashtirilgan nusxasini ko'rsatib,

undagi ba'zi o'rinlarni izohlashi maqsadga muvofiqdir. Masalan, darslikning 12-13-betlaridagi jumboqli topshiriq "Ona-bola ish ustida" va "Guli jonivorlarni sevadi" mavzusi asosidagi mazmunli rasm ham matn tuzish topshiriqlariga bog'lab berilgan bo'lib, ushbu mazmunli rasmlarda Guli ismli qizning oiladagi hayoti tasvirlangan. Bunda «Guli» ismini o'qitishga tayyorlash uchun darslikdagi **gul** va **i** harf tovushining kattalashtirilgan rasmini namoyish qilish, «**gul**» so'zi bilan bog'liq boshqa ismlarni, masalan, Gulmira, Gulchehra kabilarni eslatish maqsadga muvofiqdir.

Darslikka bu xildagi jumboqli topshiriqlarning kiritilishi o'quvchilarda mustaqil fikrlashni rivojlantirishda, ularni topqirlikka va bilimdonlikka undashda katta ahamiyatga ega. Shuningdek, turmushda bola nutqida faol qo'llaniladigan yoki ularga yaxshi tanish bo'lgan «**ma**», «**min**» (14-bet) kabi ba'zi ish-harakatni bildiruvchi so'zlarning darslikka kiritilishi ham, avvalo, alifbe davrining boshlang'ich bosqichida o'quvchilarda muayyan harf-tovushga oid bilimlarni mustahkamlashda, ularga tavsiya qilinayotgan o'quv materiallarning yetarli darajada bo'lishiga, ya'ni ko'proq so'z o'qish imkoniyatini hosil qilishga, qolaversa, ish-harakatni bildiruvchi so'zlar (fe'l)ga oid boshlang'ich amaliy bilimlarni vujudga keltirishga qaratilgan. O'qituvchi darslik materiallari bilan cheklanib qolmay, ushbu so'zlar mazmunini to'liq izohlashda turli mazmunli rasmlardan ijodiy foydalanishi maqsadga muvofiqdir.

Darslikning 17, 33-betlarida **T** va **Y** tovush-harflarini o'rganishda mustahkamlash darslari uchun tavsiya qilingan «Bekinmashoq» o'yinida «**harflarni top**» rebusining kattalashtirilgan nusxasini tayyorlab, ushbu nusxa asosida harflarni toptirish, rebusda berilgan harflardan so'zlar tuzdirish maqsadga muvofiqdir. Xususan, **T** tovush-harfini o'rganish uchun tavsiya qilingan rebusdagi **OTMA** so'zini bolalar osongina topa oladilar, uning tarkibida **O**, **T**, **M**, **A** tovushlari qatnashgan, ushbu harflar ishtirokida **OT**, **MOT**, **TOM** kabi so'zlarni tuzish mumkin. 33-betdagi rebuslarni ham har ikkovini yonma-yon xuddi darslikda berilganidek, kattalashtirilgan nusxasini sinf xattaxtasiga ilib qo'yib, rebusga berkitilgan harflarni (1-rebusda **u**, **b**, **m**, **o**, ikkinchi rebusda **y**, **l**, **o**, **i** kabi) ular birgalikda **uy** so'zini hosil qilishini toptirish, ushbu harflar

ishtirokida *ol, mol, yoy, bol, loy* kabi so'zlarni tuzdirish mumkin. Bunday mashg'ulotlar bolalarning aqliy faolligini rivojlantiradi, mantiqiy va mustaqil fikrlashga o'rgatadi.

Darslikda ertakdan rasm-lavhalar, ular asosida matn berib borishga ham e'tibor berildi. Xususan, darslikning 16, 18, 31-betlarida *Tt, Ll, Uu* harf-tovushlarni o'rganishga mo'ljallangan darslar uchun «*Ochko'z bo'ri*», «*AH bobo va qirq qaroqchi*», «*Bo'ri bilan turna*» ertaklaridan rasm-lavha va matnlar berilgan. Ushbu o'rinda o'qituvchi rasmlarning qaysi ertak asosida chizilganligi va uning mazmunini bolalarga hikoya qildirishi, eslatishi maqsadga muvofiqdir. Xususan, Alifbe davrining boshlang'ich bosqichida o'rganish uchun «*Ochko'z bo'ri*» ertagiga chizilgan rasm-lavha va matnni quyidagi tartibda o'rganish mumkin.

O'qituvchi bu ertakka ishlangan bir necha rasmlarni o'quvchilarga ko'rsatadi. (Rasmlar sinf xattaxtasiga ilib qo'yiladi.)

- Qani, bolalar, bu rasmlar sizga qaysi ertakni eslatyapti?
- «*Ochko'z bo'ri*» ertagini.
- Yaxshi. Kim «*Ochko'z bo'ri*» ertagini aytib beradi? Albatta, o'quvchilarning javobini to'ldirgan holda, o'qituvchi ertakni qayta, obrazli va jonli ohangda aytib beradi, rasmlar asosida suhbat o'tkazadi. Keyin darslikdagi rasm-lavha tasviri asosida berilgan matn o'qitilib, gaplar tuzdiriladi.

- Ana ot.
- Ot bo'ridan qo'rqmadi.
- U bo'rini tepdi kabi..

Shuningdek, har bir tovush-harf uchun tavsiya qilingan rasmlar ostida ularning so'z andozasi berilgan bo'lib, ular asosida so'zlarni tovush-bo'g'in tahlilini muntazam o'tkazib borish o'quvchilarning yangi bilimlarni mustahkam o'zlashtirishlariga asos bo'ladi.

Alifbe davri uchun har bir tovushga ilova sifatida so'zlarning bo'g'inlab berilishidan maqsad, avvalo, kelajakda o'quvchining orfografik savodxonligini ta'minlashga, to'g'ri o'qish va yozish ko'nikmalarini tarkib toptirishga, qolaversa, o'quvchining lug'at boyligini, so'z zaxirasini oshirishga qaratilgan. Ushbu

materiallar yangi bilimlarni mustahkamlashga oid mashg'ulotlarda o'quvchilar bilimni tekshirib ko'rishda asqatadi. O'qituvchilar mazkur didaktik materiallarga ijodiy yondashgan holda o'quvchilarning to'g'ri yoza olishi, so'z boyligi, so'zlarni bo'g'inlarga to'g'ri ajrata bilishga oid bilimlarini tekshirib boradilar. Masalan: **B** harf-tovushini o'rganish uchun 3 ta so'z andozasi berilgan bo'lib, ular **bobo**, **beshik**, **baliq** rasmlari bilan birgalikda taqdim etilgan.

Birinchi andozani o'quvchilar mustaqil to'ldira oladilar, chunki **bobo** so'zidagi barcha harf-tovushlar o'quvchilarga tanish, **beshik** va **baliq** so'zlariga oid andozalarni to'ldirish emas, balki mazkur so'zlarni darslikdagi andozasiga asoslanib bo'g'inlarga ajratishni talab qilish maqsadga muvofiq bo'ladi.

O'qituvchi: - Qani, beshik so'zini bo'g'inlarga ajrataylik-chi.

O'quvchilar: - Be-shik.

O'qituvchi: - Beshik so'zida nechta bo'g'in bor ekan?

O'quvchilar: - Ikki.

O'qituvchi: - Juda to'g'ri.

Yangi o'rganilgan har bir harf-tovush uchun berilgan rasm asosidagi so'zlarni shu xilda bo'g'inlarga bo'lib talaffuz etish, barcha harf-tovushlari o'rganilgan so'zlar uchun berilgan andozalarni mustaqil to'ldirish o'quvchida orfografik savodxonlikni o'stirishga yordam beradi.

Hozirgi vaqtda izlanuvchan va tajribali o'qituvchilar bilish faoliyatini jadallashtirishda ta'lim jarayonini didaktik o'yinlar bilan uyg'unlashtirib samarali natijalarga erishmoqdalar.

Ma'lumki, o'qituvchi didaktik o'yin darslarni o'tkazish uchun juda ko'p adabiyotlar bilan tanishishi, o'quvchilarning bilim darajasi, yoshi, psixologik xususiyatlari, iqtidorini hisobga olishi zarur.

Didaktik o'yinli darslar yangi mavzuni bayon qilish, mustahkamlash, bolalar bilimni sinab ko'rish va baholash jarayonida qo'llanilishi mumkin. O'qituvchi o'quvchilarni yakkama-yakka, keyinchalik guruhli o'yinlarga tayyorlashi, ular muvaffaqiyatli chiqqanidan so'ng ommaviy o'yin darslarini o'tkazishi kerak. Chunki o'quvchilar didaktik o'yin darslarida ishtirok etish uchun kerakli bilim, ko'nikma va malakalarni egallagan bo'lishlari zarur.

Savodga o'rgatish davrida qo'llaniladigan ba'zi didaktik o'yin mashg'ulotlaridan namunalar keltiramiz:

Mazkur didaktik o'yinni alifbegacha davr va alifbe davrida qo'llash mumkin. O'quvchilarga bir so'z o'qib eshittiriladi. Masalan: «**Ism**» so'zi. Agar o'quvchilar mazkur so'zni yoza olsalar, alifbe davrida bu so'zni sinf xattaxtasiga yozib qo'yish mumkin. So'ngra so'zdagi har bir harfga alohida so'zlar toptiriladi. «**Ism**» so'zidagi **I**, **S**, **M** harflari uchun o'quvchilar: **I** - **ilon**, **S** - **sigir**, **M** - **maymun** so'zlarini topadilar. O'qituvchi mazkur so'zlar ishtirokida gap tuzdiradi. O'quvchilar «Hayvonot bog'ida ilon, maymun bo'ladi, sigir esa bo'lmaydi», «Men ilon, maymun, sigir rasmini chizdim» kabi gaplarni tuzishlari mumkin. **Ilon**, **sigir**, **maymun** so'zlarini bo'g'inlarga bo'lib o'rgatish, so'zlar tarkibidagi unlilar haqidagi ma'lumotni mustahkamlash asosida o'quvchilarning bo'g'in va tovush munosabatiga oid tushunchalari rivojlantiriladi.

Sinf xattaxtasiga yozib yoki oldindan tayyorlangan plakat holatida kesma harflar o'quvchilarga quyidagi tartibda taqdim etiladi:


K	O	M	S
L	U	N	
T	I		

Demak, birinchi qatorda to'rtta, keyingisi uchta, undan keyingi-sida ikkita harf mavjud. Mazkur harflar ishtirokida kim ko'proq so'z topish o'yini o'ynaladi. O'quvchilar daftarlariga topgan so'zlarini yozadilar: **mol**, **tol**, **mis**, **kino** va h.k. Agar mazkur o'yin alifbe-gacha bo'lgan davrda o'tkazilsa, unda o'yin shartlari o'quvchilarga og'zaki tushuntiriladi va boshqa ishlar ham og'zaki bajariladi. Bun-fla qatorlardan birortasida harf o'rnida bitta bo'sh katakcha shaklini tavsiya etish hamda o'quvchilarga bo'sh katakchaga o'zi ma'qul ko'rgan harfni qo'yish imkoniyatini berish mumkin. Albatta, bu holda o'quvchida mustaqil fikrlash uchun ko'proq imkoniyat yuza-ga keladi.

Bo'g'in ustida ishlashga oid didaktik o'yinlardan savodga o'rgatish davridek, imkoniyatga qarab yoki og'zaki yoxud yozma tarzda quyidagi

topshiriqlardan foydalanish tavsiya etiladi. O'qituvchi sinf xattaxtasiga birgina so'zni yozadi. Masalan: **kaptar** so'zi. Uni bo'g'inlarga ajratiladi: **kap-tar**. Endi har ikki bo'g'indan yana yangi so'zlar tuziladi: **kap-kir, tar-vuz**. O'yinni o'quvchilar jamoasining qiziqishini, tayyorgarlik darajasini hisobga olgan holda davom ettirish, yozma ishlar o'tkazish mumkin. **Kataklarni to'ldiring»** topshirig'iga asosan tayyorlangan quyidagi rebus o'yin ham o'quvchilarning bo'g'inga oid bilimini mustahkamlash maqsadida amalga oshiriladi.

Buning uchun sinf xattaxtasiga quydagicha katakchalar chiziladi:



O'qituvchi tomonidan katakchalarning biriga yoki ikkitasiga istalgan bo'g'in yoziladi. Qolgan kataklarni o'quvchilar o'zlari mustaqil to'ldirishlari lozim. Albatta bunda havola etilayotgan harflar soni ikkita bo'lsa, u so'zning birinchi bo'g'inini tashkil etishi tushuntiriladi.

Yuqoridagi o'yinlarni o'tkazish uchun o'qituvchi qirqma bo'sh kataklarni kerakli miqdorda oldindan tayyorlab qo'yishi alohida ahamiyatga ega. Bu qirqma bo'sh kataklardan savodga o'rgatish davri, keyinroq ona tili darslarida ham foydalanish mumkin.

Xulosa

O'zbekiston Respublikasida yosh avlodning ta'lim-tarbiya ishlariga alohida e'tobor qaratilgan. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining IX sessiyasida qabul qilingan «Ta'lim to'g'risida» gi Qonun va "Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi" yosh avlodni tarbiyalashning tamal toshlari hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov ta'kidlaganlaridek, "Agar biz o'z kuchi, salohiytiga ishonadigan, boqimandalikni or deb biladigan, eng rivojlangan mamlakatlarning ilg'or kishilari bilan teppa-teng muomala qila oladigan, oqni qoradan, yaxshini yomondan ajrata oladigan, bu murakkab, beshavqat hayotning past-u baland, chang-u tor ko'charidan Alloh bergan aql-zakovati bilan to'g'ri yo'lni topa olishga qodir bo'lgan barkamol avlodni tarbiyalab yetishtirsak, o'ylaymanki, o'z maqsadimizga to'la erishgan bo'lamiz". Yurtboshimiz ta'kidlagan maqsadni amalga oshirishda hamda mustaqil yurtimizga munosib farzandlarni tarbiya qilishda boshlan'gich talim juda muhim o'rin tutadi. Boshlang'ich ta'lim uzluksiz ta'limning eng muhim bosqichidir. Boshlang'ich ta'limda boshlan'gich sinf o'quvchilariga ta'lim-tarbiya berishdagi muhim vazifalarning asosiy qismi o'qish darslarida amalga oshiriladi.

Savod o'rtgatish davrida o'qish va yozish harakatini maqsadga muvofiq ravishda bajara olish o'qish va yozish ko'nikmasi deyiladi.

Bu ko'nikma bilimni talab qiladi, chunki har qanday ko'nikma bilimsiz shakllanmaydi. Bilim ko'nikmaga aylanmagan bo'lishi mumkin. Masalan bola v harfining elementlarini, yozuv chiziqlari orasiga qanday joylashtirilishini bilib uni daftarda yoza olmasligi yoki o'quvchi harflarni tanib, ularni o'qiy olmasligi mumkin. Yozish ko'nikmasini hosil qilish uchun boshqa faoliyat turlari, ya'ni yozish jarayonida partada to'g'ri

o'tirish, ruchkani barmoqlar orasida tutish, daftarni qiyalikda qo'yish kabilar ham o'rgatiladi.

O'qish va yozish ko'nikmasi takomillashtirila borib, malakaga aylantiriladi. Malakaning shakllanishi uchun bir faoliyat bir necha bora takrorlanishi lozim. Yozish malakasiga o'quvchi ruchkani qanday ushlash, qanday yurgizish haqida o'ylab o'tirmay, so'z va gaplarni yoza boshlaydi. Demak o'qish va yozish malakasi harakatning o'ylab o'tirmay amalga oshirilishi jarayonidir. Malaka o'qitishning keyingi bosqichlarida mustahkamlanib avtomatlashish darajasiga yetkaziladi.

O'qish va yozish kishi nutq faoliyatini turi bo'lib, u nutqqa oid malakadir. O'qish malakasini ham nutq faoliyatining boshqa turlari bilan, ya'ni og'zaki hikoya qilish, o'zgalar nutqini eshitish orqali anglash, ichki nutq bilan uzviy bog'liq holda shakllanadi. Maktabda o'qitishning muvaffaqiyati savod o'rgatishning qanday tashkil etilganligiga bog'liq.

O'quvchini savod o'rgatish jarayonida elementar o'qish va yozishga o'rgatishda o'quvchilarning faoliyat ko'rsatishi va nutq faoliyatiga kirishishlari uchun talab bo'lishi, o'z fikrini og'zaki yoki yozma ifodalashi uchun zaruriyat va ehtiyojni yuzaga keltiruvchi vaziyat yaratilishi lozim.

O'qish va yozish malakasi biri ikkinchisining muvaffaqiyatli amalgam oshuvini ta'minlaydi. SHuning uchun ham o'qishga o'rgatish bilan yozuvga o'rgatish parallel olib boriladi va bu faoliyat muntazam ravishda mashq qildiriladi. Shunday ekan, savod o'rgatish jarayonida bola juda ko'p o'qishi yozishi zarur. O'qish uchun ham, yozish uchun ham yangi matn olinadi, chunki bir matnni bir necha bor qayta o'qish bilan maqsadga erishish qiyin. Bu ko'pincha o'qilgan matnni yuzaki yodlab olishga to'g'ri keladi.

Savod o'rgatish davri o'qish va yozuv darslarida o'quvchilar o'qish va yozuv malakasini muvaffaqiyatli egallashlari uchun bir qator amaliy ishlarni amalga oshirish zarurki, bular bolalarning ongli o'qish malakasi va imloviy

savodxonligini, ogʻzaki va yozma nutqining toʻgʻri rivojlanishiga, bola shaxsining umumiy kamolotiga taʼsir qilsin va taʼminlansin.

Savod oʻrgatish davri oʻqishva yozuv darslarini ilgʻor pedagogik texnologiyalar asosida tashkil etish dars samaradorligini oshiruvchi omil boʻlib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Karimov I.A. Yuksak maʼnaviyat – yengilmas kuch.- Toshkent: “Maʼnaviyat”, 2008.
2. Karimov I.A. Asosiy vazifamiz- Vatanimiz taraqqiyoti va xalqimiz farovonligini yanada yuksaltirishdir.- Toshkent: “Oʻzbekiston”, 2010.
3. Oʻzbekiston Respublikasining “Taʼlim toʻgʻrisida”gi Qonuni // Barkamol avlod- Oʻzbekiston taraqqiyotining poydevori.- Toshkent: “Sharq” nashriyot- matbaa konsernining Bosh tahririyati, 1998.
4. Oʻzbekiston Respublikasi “Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi” // Barkamol avlod- Oʻzbekiston taraqqiyotining poydevori.- Toshkent: “Sharq” nashriyot- matbaa konsernining Bosh tahririyati, 1998.
5. Barkamol avlod orzusi (Tuzuvchilar: Qurboniv Sh., Saidov H., Ahliddinov R.)- Toshkent: “Sharq” nashriyot-matbaa konserni Bosh tahririyati, 1999.
6. Boshlangʻich taʼlim boʻyicha Yangi tahrirdagi Davlat taʼlim standart i// Boshlangʻich taʼlim .- Toshkent, 2005.- 5-son, 5,6,8-9-betlar.
7. Boshlangʻich taʼlim boʻyicha Yangi tahrirdagi oʻquv dasturi // Boshlangʻich taʼlim .- Toshkent, 2005.- 5-son, 21-33-betlar.
8. Boshlangʻich taʼlim konsepsiyasi// Boshlangʻich taʼlim, 1998, 6-son.
9. Uzviylashtirilgan Davlat taʼlim standarti va oʻquv dasturi, - Toshkent, 2013.
10. Abdullayeva Q., Nazarov K., Yoʻldosheva SH. Savod oʻrgatish metodikasi.- Toshkent, “Oʻqituvchi”, 1996.
11. Abdullayeva Q. Yangi pedagogik texnologiyalar // Boshlangʻich taʼlim, 1999, 4-son, 8-9-betlar.

12. Azizxo`jayeva N. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat.- Toshkent: O`zbekiston Yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamg`armasi nashriyoti, 2006.
13. Matnazarova K. O`qitishning faol metodlari// Boshlang`ich ta`lim, 2009, 5-son, 22-23-betlar.
14. Matchonov S., G`ulomova X. va boshqalar. Boshlang`ch sinf o`qish darslarini pedagogik texnologiyalar asosida tashkil etish.- Toshkent: , “Yangiyul Poligraph servise”, 2008.
15. Qosimova K., Matchonov S. , G`ulomova X., Yo`ldasheva SH., Sariyev Sh. Ona tili o`qitish metodikasi. -Toshkent, «Nosir», 2009.
16. Roziqov O. Va boshqalar. Ona tili didaktikasi. –Toshkent: Yangi asr avlodi, 2005.
17. Safarova R., G`ulomov M., Inoyatova M., Salayeva M. Savod o`rgatish darslari.- Toshkent, “Ma`naviyat”, 2003.
18. Safarova R., G`ulomov M., Inoyatova M. Savod o`rgatish darslari.- Toshkent, “Tafakkur”, 2012.
19. Internet ma`lumotlari: [www. ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz)

Mundarija:

Kirish.

I bob. Savod o`rgatish darslarining asosiy mazmuni va uni o`rgatishdagi izchillik.

1.1.Savod o`rgatish davrida o`quvchilarni o`qishga o`rgatish.....

1.2Savod o`rgatish davrida grammatik orfagrafik bilimlarni amaliy o`zlashtirish.....

II bob. Savod o`rgatish davrida interfaol usullardan foydalanish .

2.1. Savod o`rgatish davrida interfaol metodlarni qo'llash orqali o`quvchilar faolligini oshirish.....

2.2.Savod o`rgatish davrida interfaol usullardan foydalanish.....

Xulosa.....

Foydalanilgan adabiyotlar.....